



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI

BUYRUQ

2026-yil 12-yanvar

8-son

**Audit tadbirlarini
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 416-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuraturasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Transport vazirligining 2025-yil 28-apreldagi 7-sonli qo‘shma qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ichki audit xizmatining 2026-yil uchun yillik ish rejasi bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ichki audit xizmatining yillik ish rejasida belgilangan chora-tadbirlar samarali bajarilishi uchun tegishli hududiy boshqarmalarda nazorat tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha reja-jadval ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ichki audit xizmati (N.Cho‘liyev):

nazorat tadbirlari reja-jadvalda belgilangan muddatlarda to‘liq, har tomonlama va xolisona o‘tkazilishini;

nazorat tadbirlari natijasida aniqlangan holatlar yuzasidan asoslantirilgan ma‘lumotlarga muvofiq rahbariyatga axborot kiritilishini ta‘minlasin.

4. Moliya-iqtisod va tarif boshqarmasi (A.Ximmatov) xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlar o‘rnatilgan tartibda asoslantirilgan holda to‘lanishini ta‘minlasin.

5. Devonxona (A.Raximov) ushbu buyruq tegishli hududiy bo‘linmalarga yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



I.Maxkamov

**Yillik ish rejada belgilangan chora-tadbirlar samarali bajarilishi
uchun tegishli hududiy boshqarmalarda nazorat tadbirlarini
amalga oshirish bo'yicha
REJA-JADVAL**

№	Ichki audit obyektlari nomi	Xavf omili darajasi	Ichki audit tadbiri bilan qamrab olinadigan davr	Ichki audit tadbirini o'tkazish muddati	Mas'ul xodim
1	Samarqand viloyati transport boshqarmasi	O'rta	01.2024-01.2026	2-chorak	N.Cho'liyev
2	Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi	O'rta	01.2024-01.2026	2-chorak	N.Cho'liyev
3	Buxoro viloyati transport boshqarmasi	O'rta	01.2024-01.2026	4-chorak	N.Cho'liyev
4	Jizzax viloyati transport boshqarmasi	O'rta	01.2024-01.2026	4-chorak	N.Cho'liyev
5	«Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markazi» DM	Yuqori	01.2024-01.2026	3-chorak	N.Cho'liyev
6	Transport vazirligi huzuridagi Raqamli transport markazi	O'rta	01.2024-01.2026	3-chorak	N.Cho'liyev